

---

Khadzhieva, T. (2018) Karaçay ve Balkarların Folklorunda Tengri (Teyri) Kültü. *Uluslararası Folklor Akademi Dergisi*. Cilt:1 Sayı: 3, 435 – 443.

**Makale Bilgisi / Article Info**

*Geliş / Recieved: 02.12.2018*

*Kabul / Accepted: 18.12.2018*

*Araştırma Makalesi / Research Article*

## YAZARIN POETİK TİPİ

Ra'no HAKİMJONOVA \*

### Öz

*Bu makalede, Ulugbek Khamdam'ın "Yaxshiyam sen bor!" Hikayesinin psikoanalitik katmanı incelenecektir. Z.Freyd, E.Fromm ve K.Yung gibi dünyaca tanınmış psikanalistlerin eserlerinden hareketle*

**Anahtar Kelimeler:** *Kur'andaki kıssalar, Yusuf ve Zuleyha, sembol, metafor, psikanaliz, arketip, rüya, sebep, anlamsal katmanlar.*

## THE WRITER'S "POETIC TYPE"

### Abstract

*This article studies metaphorical layer of Ulugbek Khamdam's story "Yaxshiyam sen bor!" "Thanks, I have you" fouding on the works of world-known psychoanalysts, such as Z.Freyd, E.Fromm and K.Yung.*

**Keywords:** *"Qoran" stories, Yusuf and Zulayho, symbol, metaphor, psychoanalysis, archetype, dream, motive, semantic layers.*

---

\* Alisher Navoiy nomidagi, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

## YOZUVCHINING "POETIK TUSH" I

**Annotatsiya.** Maqolada yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Yaxshiyam sen borsan!" hikoyasining ramziy qatlamlari Freyd, Fromm, Yung kabi psixoanalitiklar tadqiqotlarida ilgari surilgan nazariy qarashlarga asoslanib tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** "Qur'on" qissalari, Yusuf va Zulayho, ramz, psixoanaliz, arxetip, tush, motiv, ma'no qatlamlari.

..

“Yusuf va Zulayho” qissasi Sharqu G’arbni birday qiziqtirib kelgan ko’hna mavzulardan sanaladi. Qissaning muqaddas kitoblarda uchrashi ham mazkur mavzuning mag’ribu mashriqda ijodkorlar e’tiborini qozonishiga sabab bo’lganini ko’rsatadi. Sharqda Firdavsiy, Ibn Sino, Qul Ali, Rabg’uziy, Jomiy, Durbek, Andalib kabi yetuk shoir-yozuvchilar “Qur’on” syujeti asosida ushbu mavzuga qo’l urganlar. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda, xususan, she’riyatimiz va epik dostonlarimiz ichidagi ayrim hikoyatlarda Yusuf va Zulayho obrazlari ma’lum motivlar sifatida (go’zallik, ishq, axloq) u yoki bu shaklda yozuvchi badiiy niyati va estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qilib kelgan.

G’arbda Uyg’onish davri ostonasida Dante “Ilohiy komediya”da Zulayhoga axloqiy tomondan yondashadi va uni do’zaxga joylaydi. Bu esa G’arb va Sharqda Zulayho obraziga birdek qaralmaganini ko’rsatadi. Keyinroq badiiy tafakkurda sayyor syujetlarga qarashlar xiyla mustaqillashib qolganda, Tomas Mann kabi yozuvchilar (“Yusuf va uning og’a-inilari” romanida) Yusuf qissasiga o’z munosabatlarini bildirish va badiiy niyatlariga xizmat qildirish yo’lidan bordilar. G’arbda bu mavzu nafaqat adabiyot, balki keng san’atkorlar auditoriyasini ham o’ziga jalb etdi. Xususan, musiqa va rassomchilik sohalarida bir qator asarlar yaratildi.

XX asrdan e’tiboran adabiyotda individuallik kuchayib borgani sari mazkur obrazlar yozuvchi badiiy niyatini ifodalash uchun bir vositaga aylandi. Ijodkorlar “Yusuf va Zulayho” qissalariga o’z zamonlari muammolaridan kelib chiqib ijtimoiy, ishqiy, falsafiy ma’nolar yukladilar. Chunonchi, XX asr turk adabiyoti namoyandasi, modernist shoir Nozim Hikmat Yusufning zindon motivini rivojlantirmoqchi va unga yangi ijtimoiy-siyosiy mazmun yuklamoqchi bo’ladi. Ko’rinadiki, jahon adabiyoti tajribasida Yusuf qissalariga yangicha yondashuv o’tgan asrdanoq boshlangan ekan.

O’rta asrlarda yoxud Uyg’onish davri adabiyotida ushbu qissaga asosan diniy munosabat yetakchilik qilganini ko’ramiz. Tasavvuf ta’limoti o’z adabiyotini shakllantirgach, mazkur qissa va obrazlarga yangicha ma’nolar yuklandi. Natijada, mutasavvif ijodkorlar uchun nafaqat Yusuf va Zulayho liniyasi, ayni damda Yusuf-Yoqub (ota va suyukli o’g’il), Yusuf va uning og’alari, Yusuf-zindon, Yusuf-tush, Yusuf-hokimiyat, Yusuf-go’zallik kabi qirralari ham ilhom manbai bo’lib keldi. Albatta, ular ichida eng ko’p

ishlangani “Yusuf va Zulayho” qissasidir.

“Yusuf va Zulayho” qissasi nafaqat kechagi, balki bugungi kun ijodkorini axborot asrida ham ushbu mavzuga qayta murojaat etishga undamoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli namoyondasi Ulug'bek Hamdamning biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan “Yaxshiyam sen borsan!” hikoyasi “Yusuf va Zulayho” mavzusi hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagani, eskirmaganini ko'rsatadi.

Bu hikoya ramzlar asosiga qurilgan. Undagi ramzlarni to'g'ri ilg'ay olish hikoya mazmunini anglashimizga yordam beradi. Yozuvchi an'anaviy Yusuf va Zulayhoni emas, zamonaviy dunyodagi bozor munosabatlari ta'sirida yashayotgan juftlikni aks ettirishni maqsad qiladi. Bir qarashda hikoyada biz bilgan Yusuf va Zulayhoning nomidan bo'lak aloqadorlik yo'qday. Ammo ramziy hikoyaning qavat-qavat ramzlarini birma-bir kashf qilib borar ekansiz, an'ananing juda katta ahamiyati borligini tushunib yetasiz. Bu aloqadorlik to'g'ridan-to'g'ri emas. Hikoyada an'anaviy qissa syujetiga taqlid ham yo'q. Ammo botiniy aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlikni tushunish uchun Freyd, Fromm, Yung kabi jahon psixoanalitiklari ilgari surgan tadqiqotlardan yaxshi xabardorlik talab etiladi. Bular bilan tanishmasdan turib, hikoyaning umumiy mazmunidan bahra olish mumkin-u, lekin uning ramziy qatlamlariga kirib bo'lmaydi.

Shu bois an'anaviy Yusuf qissasi hamda psixoanaliz yutuqlariga asoslangan holda hikoyani tadqiq etamiz.

Hikoya Yusuf va Zulayhoning biroz ko'ngilsiz qo'ng'iroqlashuvlari va restoranga ovqatlanishga erinibgina borishlari tasviri bilan boshlanadi. Zulayho ovqat yeyishni emas, issiq choy ichishni, ichiga issiq kirishini istaydi. Demak, qish fasli. Kun sovuq. Atrof, jamiyat, tashqarida sovuq hukmronlik qiladi va bu iqlim qahramon botiniga ham yo'l topib kirmoqda. Zulayho dastlab issiq choy bilan eritmoqchi bo'lgan qalbidagi muz, hikoya so'ngida ishq ma'rifati bilan eritilib, yo'q qilinadi.

Restoran epizodidan so'ng qahramonlar bozorga shunchaki aylanib chiqish uchun kiradilar. Kiradilar va adashib qoladilar. Chiqish yo'li ham topilavermaydi. Chiqish yo'li topilavermagach, yana choy ichgani kiradilar. Zamonaviy dunyoda insonning tinimsiz qorni atrofida aylanishi ma'naviy olamga yo'lni topa olmayotganiga ishoradir. Bu o'rinda bozor motivi Yusufni

bozorga olib borib sotishlari bilan bog'liq. Faqat hikoyada bozor motiviga butunlay yangi ijtimoiy muammolar yuklangan.

So'ng hikoyaga mo'ysafid choyxonachi obrazi kirib keladi. Sharq hikoyalarida ko'pincha ko'pni ko'rgan, hayot sirlarini anglagan mo'ysafidlar yo'lini yo'qotgan qahramonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib yuborishadi. Mazkur hikoyada esa mo'ysafid xuddi tushdagi kabi chiqish yo'lini dastlab aytmaydi. Bu Yusufning chiqish yo'lini topolmayotgandagi xavotirining ramzi. Uningcha, choyxonaga kirgan bu mijozlar kundalik mijozlardan, ommadan farq qilishmaydi. Chunki, "chiqishni izlaganlar ko'p emas!" Ammo Yusufning qat'iyati unga jiddiy razm solishga va boshqa hammadan ajralib turishini anglab yetishiga sabab bo'ladi hamda kutilmagan chiqish yo'lini – qabristonni ko'rsatib yuboradi.

Chiqish yo'lini faqat Kunchiqardan izlashi, nazarimizda, Sharq ma'rifatiga, Sharq falsafasi tajribasiga tayanib dunyoni qalbdan quvish, xalos bo'lishga ishora, demakdir.

Ortega-i-Gasset muhabbat tuyg'usi kamdan-kam madaniyatlarda qadriyat darajasiga ko'tarilganini yozadi. Xususan, qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Yunon-Rim madaniyatida sevgiga jamiyatning ustuni sifatida qaralmagani, olamni ishq asosida yaralishi ilk bor musulmon Sharqi bag'rinda paydo bo'lgan tasavvuf g'oyalarida aks etganini aytadi [5.23]. Demak, hikoya qahramonlarining bozordan chiqish yo'lini aynan Kunchiqar (Sharq)dan izlaganlari bejiz emas va bu hol ming yillik ko'hna haqiqatni yana bir karra isbot qiladi.

O'rta asrlar musulmon adabiyotida juda ko'p uchraydigan mo'ysafid xos sirni Yusufga aytayotganidan cho'chidi va "bir gap bo'lsa, sizlarni tanimayman" deya ogohlantiradi. Bu – haqiqatni aytishdan cho'chish. Ko'rinadiki, mo'ysafid choyxonachi buqalamundek tovlanuvchi zamonamizda xosu avomni ajratishdan qiynalmoqda. Binobarin, u chiqish yo'lini ko'rsatib ham shubhalanishda davom etaveradi: "ular qabristonni tushunisharmikan? Xoslardanmikan?" degan so'roq uni qiynayveradi.

Zulayhoning bozorda yo'qolishi motivi ham tushni yodga soladi. Biz bilgan Yusuf qissasida akalari Yusufni quduqqa tashlashgach, Yoqubga uning yo'qolgani xabarini beradilar, bu holat hikoyada Zulayho obraziga singdirib yuborilgan. Yoqubning o'g'li hajridagi iztiroblari esa hikoyada

Yusufning yuragida ro'y beradi.

Bozordagi adashuv turlanib ketgan yaltiroq dunyoda inson o'zidan, ko'nglidan, ruhidan uzoq tushgani, unga yetmog'i uchun bu ranginlikni oyoq ostiga olishiga ishora. Ular – xos odamlar. Bunday taloto'pdan chiqish ehtiyoji zo'rayib, maqsadlari birlashib, “yagona ruh”ga aylanishgachgina qahramonlar bozordan chiqishga muvaffaq bo'lishadi.

Erix Fromm o'zining “Sevgi san'ati” risolasida bozor iqtisodiyotiga o'tgan dunyoda sevgiga munosabat susayganini yozadi. Hamma narsa ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan. Xilma-xil restoranlar, kinoteatr, salon, bozorlar... Bularning bari o'z iste'molchisiga mushtok. Dunyo yengil hayot va'da qilib, insonni ham shunga mos bo'lishga undayotgan bir pallada uning shu choqqacha yiqqan madaniy qadriyatlarini mana shu yengil hayot chohiga birma-bir qulab bormoqda. Xususan, muhabbat tuyg'usi ham.

U.Hamdam o'z qahramonlarining bozor munosabatlariga qurilgan jamiyatda inson sifatida halok bo'lishlarini istamaydi va bunda chinakam ishqni bozor “virus”iga “antivirus” sifatida yordamga chaqiradi. Yozuvchiga ko'ra, bozor munosabatlari asosida harakatlanayotgan shovqin-suronli XXI asrda ham inson qalbini dunyodan xalos qiladigan yagona tuyg'u – bu ishqdir: “Sevgi meni dunyodan asrar”, deb yozadi boshqa bir asarida.

O'quvchi hikoyani o'qirkan, qandaydir tush bilan tanishayotganday bo'ladi. Yozuvchi go'yo o'zi bilgan, azaldan sevib o'qigan, muqaddas kitoblar yoki tasavvuf adabiyotidagi, qolaversa, o'z botinidagi qorishiq o'y-xayollarini tush ko'rayotganday, ezgu va ilohiy tush ko'rayotganday bo'ladi. Ong ostidagi aksi bilan tanishgan yozuvchi Yusuf va Zulayhoni tush ko'radi, ayni damda, o'quvchi ham uning ong osti akslanishi bilan tanishganday bo'ladi. Hikoyaning mantiq bilan tutib bo'lmas voqeasi rivoji va yechimi shunday xulosalar qilishga undaydi.

Ma'lumki, U.Hamdam ijodida bir qancha tush-hikoyalar va bitta “Yo'l” deb nomlangan tush-roman bor. Biz ko'nikkan reallik mantig'i bilan ularni tushunish, tushuntirish ancha mushkul. Ularning ma'no qavatlariga yozuvchi ong ostida harakatlangan irreallikni payqash, shuningdek, psixoanaliz tadqiq orqaligina anglashimiz mumkin bo'ladi. Fromm bunday yondashuvni shartli ramzlar, ya'ni muayyan madaniy guruhga mansub kishilar uchungina tushunarli bo'lgan ramzlar deb ataydi. [5] Shvetsariyalik

psixanalitik K.Yung: “Arxetiplar (ilk asos) kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridan boshlab insoniyat xotirasida “kollektiv ongsizlik” sifatida yashaydi va ijod jarayonida turli shakllarda o’zini namoyon etaveradi”, deydi. Hikoyada Yusuf va Zulayho arxetipi yozuvchiga ilhom beradi. “Arxetip – ilk asos konkret davr xususiyatlari bilan bog’liq holda turlicha ko’rinishlar oladi” [7.39].

Yozuvchi Yusuf va Zulayhoning tanlagan yo’llarini aks ettirishda muqaddas kitoblardagi talqinga emas, mohiyat e’tibori bilan tasavvufona qarashga suyanadi. Chunki ilohiy kitoblarda tasavvuf talqinidagi ishq vasf etilmaydi. Undan tashqari hikoyada an’anaviy syujet liniyasida uchramaydigan, ammo zamonning o’zi taqozo etgan motivlar ham mavjud. Bozorga va dunyoviy ziynatlarga maftun bo’lish, chalg’ish shundan darak beradi.

Bilamizki, Yusufning husni tengsiz sanaladi. Asarda esa yuz, husn go’zalligi, ya’ni husn motivi Zulayhoga ko’chgan va u husniga tig’ orqali zarar yetkazadi. “Qur’on”dagi qissada ham pichoq motivi bor. Unda ayollar Yusufni ko’rib qo’llarini kesadilar [“Yusuf” surasi, 31-oyat]. Bu yerdagi pichoq motivi Zulayhoning yuziga “yuzlanadi”. Shuning o’ziyoq tushni eslatadi. Chunki “biz tushimizda o’ngimizdagi detallarni yoki o’qigan, eshitganlarimizni ayqash-uyqash ko’ramiz” [4.173].

Hikoyada an’anaviy Yusuf va Zulayho qissasi parchalanib, yozuvchi ong ostida uyg’ongan syujet parchalari, ayrim detallargina ijtimoiy muammoni aks ettirishda vosita o’laroq ishtirok etadi, xolos.

Hikoya mazmuniga ko’ra bozorda Zulayho sinovdan o’tgan edi. Boshqarma qarshisida esa Yusuf sinaladi va kutilmaganda bozor rahbariga aylanadi. Ushbu ramz muqaddas manbadagi Yusuf-hokimiyat chizig’iga tutash keladi.

Tilla do’konidan Yusuf Zulayhoni qutqargan bo’lsa, boshqarmadan Zulayho uni xalos etadi. Shu yerda an’anaviy syejet detallari yana ko’zga tashlanadi. Zulayhoning Yusufga intilishi va Yusufning uni pisand etmasligi sahnasida Zulayho darhol qalbi ishqqa to’la Zulayhoga almashinadi (tasavvufiy talqin).

Manbalardan ko’rinadiki, Sharqda Yusuf va Zulayho qissasi bir tomondan sha’riy, ikkinchi tomondan tasavvufiy talqin etib kelingan. Sha’riy

nuqtai nazardan Yusuf mazlum, Zulayho esa axloqsiz, makrli ayol. Tasavvufda esa hatto buning aksi deyish mumkin: Zulayho – ishq ramzi, Yusuf esa uni hali-hanuz anglab yetmagan g'ofil (F.Attor. "Ilohiynoma").

Asar Qur'oni Karimdan olingan quyidagi epigraf bilan boshlanadi: "Va albatta (qiyomat) soati kelguvchidir, bunga shubha yo'q. Va, albatta, Oллоh qabrlardagi kimsalarni tiriltirur" ["Haj" surasi, 7-oyat]. Hikoya bilan tanishib, unda qoldirilgan har bir ramz qatiga kirib borganimiz sari hikoya mohiyati yashiringan epigrafni tushuna boramiz, nihoyat, "nafsini ko'mganning ruhini tiriltirur" degandek jaranglaydi u.

Epigraf bilan Payg'ambar (s.a.v)ning: "O'lmasdan avval o'ling!" deya nafsga ishora etgan hadisi orasida bog'liqlik bor. Shayx Najmiddin Kubroning "Usuli ash'ara" risolasida Haqqa olib boruvchi uchta yo'l haqida ma'lumot berilgan [3.138], shularning uchinchisi tariqa shutter, ya'ni ishq orqali Haqqa yetishmoq, oshiqlik yo'lidir. Bu yo'ldagilar martabasi yo'l boshidayoq zohid va yo orifnikidan yuksak bo'lishini ta'kidlaydi. Kubro: "Bu mumtoz yo'l irodaga bog'liq bir o'linga asoslangandir", deydi. Yusuf va Zulayhoning qabristonga yuzlanishi nafsni ammorani o'z irodalari bilan ishq vositasida ko'mmoq va ko'ngillarini asl fitratiga muvofiq asramoq, tiriltirmoqdir.

Hikoya tamoman tasavvufiy kayfiyat mahsuli emas, ayni damda undan holi ham emas. Hikoyada ko'plab qarashlarning sintezi bor. Undagi ma'no tovlanishlari bir qarashda "Qur'on"dagi qissani, bir qarashda tasavvufiy holni, yana bir qarashda yozuvchi yashayotgan zamonaviy dunyoni yodga soladi.

Yozuvchi "Muvozanat" romanida ham Yusuf obraziga murojaat qilgan edi. Bunda uning do'sti Mirazizning ayoli Zahro – Zulayho timsoli. "Muvozanat" romani yurtimizdagi o'tish davrining ijtimoiy muammolari badiiy yechimiga bag'ishlangani tufayli ham "Yusuf va Zulayho" qissasining ishqiy talqini bu yerda yoritilmaydi. (Ehtimol, shuning uchun ham Zulayho Zulayho emas, balki Zahrodir). "Muvozanat"da "Qur'on" syujeti asosidagi hikoyatga tayaniladi. "Yaxshiyam sen borsan!" da esa tasavvufiy talqinga uyg'unlik seziladi. Yusuf va Zulayho yo'llarida uchragan to'siqlarni tasavvufda ulug'langan sabr vositasida yengib borishadi, ommaning biriga aylanishmaydi.



Demak, “Yaxshiyam sen borsan!” hikoyasi ramziy xarakterdagi hikoya bo’lib, bunday ramziy asarlar, odatda, barcha zamon sinovlariga dosh beradi. Yozuvchi an’anaviy Yusuf va Zulayho obraziga yangicha qarash asosida yondashadi va ushbu obrazlarga zamonaviy ramziy ma’nolar, ijtimoiy vazifalar yuklaydi. Natijada, o’zbek hikoyachiligi chuqur mazmun va ahamiyati jihatidan universal qiyofaga ega yana bir ramziy hikoya bilan boyidi.

### **Bibliografiya:**

- Fromm E. Inson qalbi. (2015), Sharq yulduzi. T.:, 2-3-sonlar.
- Gasset O. Sevgi sehri (2011), Sevgi san’ati. To’plam. –T.: O’zbekiston.
- Hamdamov U. (2017), To’lin oy qissasi. –T.: O’zbekiston.
- Injil. (1993), Bibliyani tarjima qilish institute. Stokgolm.
- Islom tasavvuf manbalari. (2005), –T.: O’qituvchi.
- Yung. (1995), Analiticheskaya psixologiya. –M.: Martis.
- Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. (2010), Adabiyotshunoslik lug’ati. –T.: Akadernashr.
- Qur’oni Karim. (1991), Alouddin Mansur tarjimasi. –T.: Sharq.